

**SAID AHMAD HIKOYALARIDA SIFAT YASOVCHI QO'SHIMCHALAR
VA XUSUSIYATLARI ("QORAKO'Z MAJNUN", "SAROB" HIKOYALARI
ASOSIDA)**

Samadova Dildora G'ayriddin qizi

Samarqand davlat universiteti

Urgut filiali Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

3 – bosqich 305 A-guruh talabasi

Annotasiya: Ushbu maqolada taniqli o'zbek yozuvchisi Said Ahmadning hikoyalarida sifat yasovchi qo'shimchalarning qo'llanilishi va ularning badiiy ahamiyati tahlil qilinadi. -li, -gi, ser-, -parvar, be-, -lik, -iq kabi qo'shimchalar orqali muallif qahramonlarning xarakteri, muhitning ruhi va voqealar dinamikasini qanday jonlantirgani ko'rib chiqiladi. Asarda Said Ahmad uslubining o'ziga xos jihatlari – psixologizm, ixcham tasvir va milliy rang-baranglik qo'shimchalarning yordamida qanday ifodalanishi misollar bilan tushuntirilgan.

Kalit so'zlar: Said Ahmad, sifat yasovchi qo'shimchalar, badiiy tasvir, psixologizm, o'zbek adabiyoti, lingvostilistika.!

Said Ahmad 1920-yil 10-iyunda Toshkent shahri "Samarqand darvoza" mahallasida o'z davrining obro'li insonlaridan bo'lgan Husanxo'ja Dadaxo'jayev oilasida dunyoga kelgan.

Yosh Said Ahmad o'zini turli sohalarida: rassomlik, artistlik, fotograflik, qurilish va hatto doktorlikda ham sinab ko'radi. Biroq, adabiyotni tanlaydi.

1940 yilda birinchi mualliflik hikoyalar to'plami "Tortiq" nomi bilan nashr etiladi. Uning "Cho'l burguti", "Lochin", "Bo'ston", "To'yboshi", "Odam bo'ri" kabi hikoyalari o'zbek adabiyotida yangilik ruhini olib kirgan.

Said Ahmad – o'zbek adabiyotining nozik psixologik hikoyalar ustasi. Uning asarlarida tilning boyligi, xususan, sifat yasovchi qo'shimchalarning mohirona qo'llanishi diqqatga sazovor. Bu qo'shimchalar nafaqat so'zlarga yangi ma'no qo'shadi, balki obrazlarning chuqurligini, muhitning jonliligini va voqealar dinamikasini kuchaytiradi.

Shaxs va narsalarning belgisini bildirib, "qanday?", "qanaqa?", "qaysi?" so'roqlariga javob bo'luvchi so'zlar sifat so'z turkumi deyiladi. Sodda yasama sifatlar – asosi bitta, tarkibida so'z yasovchi qo'shimchalar mavjud bo'lgan sifatlar.

Sodda yasama sifatlar quyidagi qo'shimchalar orqali hosil qilinadi: -li, -dor, ba-, ser-, -mand, -no-, -siz, be-, -iy, -viy, -gi, -ki, -qi, -simon, -a, -iq, -ik, -ma, -m, -kash, -don, -chi, -choq, -chiq, -chak, -dor, -oq, -q, -gir, -kir, -qir, -qur, -kor.

Oldi tikanli sim bilan to'silgan barakda yangilarni bir necha kun karantinda saqlaydilar.(Sarob) Tikan+li=tikanli belgiga egalik ma'nosini ifodalaydi.Hozirgi o'zbek adabiy tili faktlarining ko'rsatishicha -li affiksi ikki vazifaga ega 1) so'z sifat yasaydi; 2) shakl yasaydi.

I. Bu affiks sifat yasovchi eng mahsuldor affikslardan bo'lib, asosan, ot turkumiga oid so'zlardan sifat yasaydi;

II. Hozirgi o'zbek adabiy tilida -li affiksi shakl yasash vazifasiga ham ega. U shaxs yoki predmetning so'z yasash asosidan anglashilgan narsaga egaligini, unda shunday narsa borligini bildiruvchi forma yasaydi.

Bahorning iliq-issiq kunlari edi. (Sarob) Ili+q=iliq, isi+q=issiq bunda tovush ortish hodisasi kuzatiladi, asosdan anglashilgan harakat natijasi sifatidagi holat belgisini bildiruvchi sifat yasagan.

Sochi uzun bo'lganidan tizzalasa kalit bemalol qulfga yetadi. (Qorako'z majnun) be+malol=bemalol, - be qo'shimchasi asosan tojik tilidan o'zlashgan so'zlar tarkibida uchraydi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida uning yordamida yangi so'z (so'zlar) yasashi kuzatilmaydi. -be affiksi yordamida yasalgan so'zlar - asosdan anglashilgan narsa-hodisaning yo'qligini (inkorini) bildiradi.

Ba'zi-ba'zida undan "Я здаров" degan ikki enlikkina xat kelardi. (Qorako'z majnun) En+lik=enlik. -lik affiksi aniqlanmish vazifasidagi so'z bildirgan narsaning yasovchi asosdan anglashilgan narsa-predmet, vaqt uchun mo'ljallanganligini (unga xos, oid ekanini) bildiruvchi sifat yasaydi.p

Bundan keyingi suhbatlarimizni ham sir saqlaysan.(Sarob) Keyin+gi=keyingi. Bu affiks faqat vaqt va joy(makon) ma'nosidagi erta, kech, bahor, yoz, kuz, qish, avval,ilgari, hozir, keyin, oldin; ost, ust kabi sanoqli so'zlardagina sifat yasaydi: ertagi, bahorgi, kuzgi, avvalgi, ustki kabi. -gi qo'shimchasi yordamida yangi sifatlar yasalayotgani yo'q, ya'ni uni mahsulsiz so'z yasochi deb hisoblash mumkin. Buning sababi -gi qo'shimchasi yordamida so'z yasash uchun asos bo'ladigan yangi birlik - leksema(lar) yuzaga kelayotgani yo'qligidir. Ko'rinib turibdiki, bu affiks vaq va makon (joy) ma'noli ma'lum so'zlardagina sifat yasagan, hozirda esa leksema (so'z)lardan uning yangi so'zlar yasashi kuzatilmaydi.bu hol -gi affiksining so'z yasash vazifasini to'xtatganligini ko'rsatmaydi, balki -gi qo'shimchasi so'z yasash mumkin bo'lgan konkret vaqt yoki o'rin bildirivchi yangi so'zlarning yo'qligi, yuzaga kelmayotganligi bilan bog'liq.

Dunyoning ishlari xo'p qiziq-da, ota sotqin, bolasi chin vatanparvar! (Sarob) Vatan+parvar=vatanparvar. -parvar (tojikcha-parvardap, yani "o'tirmoq","parvarishlamoq", "tarbiyalamoq") o'zbek tila -parvar hoida mustaqil qo'llanmaydi, faqat yasovchilik vazifasini o'taydi, xolos. Bu affiks otdan xarakter-

xususiyat bildiruvchi sifat yasaydi: adolatparvar, ilmparvar, taraqqiyparvar, xalqparvar va hok.

Bittasi Qorako‘zga konfet, bittasi sergo‘sh t suyak berdi.(Qorako‘z majnun) Ser+go‘sh t=sergo‘sh t. Ser- affiksi so‘z o‘zakg‘arining (ko‘pincha otlarning) oldidan qo‘shilib, o‘zakdan anglashilgan ma‘noning ko‘pligini, ortiqligini, aktivligini anglatadi: serpiyoz, sertuxum, sermazmun va hok.) Miqdor jihatdan ko‘plikni, unga egalikni anglatadi. Bunda ser- bilan yasalgan sifatlar xossa, xususiyat, holat ma‘nolarini ifodalab keladi.

Qorako‘z kampirning ovozi kelayotgan bolaxona tomonga yuzini burgancha jonsiz yotardi. (Qorako‘z majnun) Jon+siz=jonsiz. Bu turdagi sifat yasovchilar shaxs yoki predmetning so‘z yasash asosidan anglashilgan narsaga ega emasligini, shu bilan xarakterlanuvchi belgini bildiruvchi sifatlar yasaydi. O‘zbek tilida -siz affiksining ham so‘z yasash ham forma yasash vazifasiga ega. Bu affiks ham eng sermahsul so‘z yasovchidir. Shaxs yoki predmetning so‘z yasashi asosida anglashilgan narsaga ega emasligi, unda shunday narsaning yo‘qlik belgisini bildiruvchi sifatlar yasaydi: imzosiz, boshsiz, qabrsiz, mevasiz.

Xulosa qilib aytganda, Said Ahmad hikoyalarida sifat yasovchi qo‘shimchalar – nafaqat grammatik jihatdan emas, balki badiiy ifodaning muhim vositasidir. Ular orqali muallif o‘quvchiga nafaqat voqeani, balki uning ruhiy lahzalarini ham yetkazishga erishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Eshmuhammedov I. O‘zbek tilining badiiy ifodalilik vositalari. T., 2015.
2. Karimov N. Said Ahmad nasrining til xususiyatlar. "Filologiya masalalari", 2019.
3. Said Ahmad. Tanlangan hikoyalar. 2-jild. Toshkent, 2008.
4. Azim Xojiyev. O‘zbek tili so‘z yasashi tizimi. O‘quv qo‘llanma. "O‘qituvchi" nashriyoti, Toshkent - 2007.
5. Maqsuda Sodiqova. O‘zbek tilida sifat. "Fan" nashriyoti. Toshkent - 1974.